

SMTI direktori BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari rahbari bilan uchrashuv o'tkazdi



Joriy yil 3 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida BMT Bosh kotibining maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi (MOPDMM) rahbari Kaxa Imnadze bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikning holati va istiqbollari, shuningdek, Markaziy Osiyo Davlat rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari muhokama qilindi.

SMTI va MOPDMM o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalari, xususan, O'zbekistonning 2025-yilda Markaziy Osiyo Davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuviga bo'lajak raisligi doirasida rejalashtirilgan qo'shma tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish masalasida fikr almashildi.

Reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalari bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ekspertlar Kengashi faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Kengashni tashkil qilish hamda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi tashabbusining dolzarbligi ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida tomonlar O'zbekiston va MOPDMM o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor ekanliklarini bildirdilar.

BMTning Markaziy Osiyo uchun Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi (MOPDMM) 2007-yilda mintaqa davlatlari tashabbusi bilan BMTning Siyosiy va tinchlik o'rnatish ishlari bo'yicha departamentining maxsus siyosiy missiyasi sifatida tashkil etilgan. MOPDMM o'z faoliyatini 2008 yilda boshlagan va uni Bosh kotibning maxsus vakili boshqaradi. Bu siyosiy vakolatga va mintaqaviy qamrovga ega BMTning profilaktik diplomatiyaga bag'ishlangan birinchi bo'linmalaridan biri hisoblanadi.

